

MADIR KULOLCHILIK MAKTABI

Allayarov Nuraddin Dilshod o'g'li

Urganch innovation university 3-bosqich talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Xorazm vohasining Madir kulolchilik maktabi va uning o'ziga xos jihatlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'z: Madir kulolchilik maktabi, sirlangan sopol, kulollar maktabi, Matchonovlar sulolasi, badiiy kulolchilik, naqshlar kompozitsiyasi.

Аннотация:

В данной статье содержится информация о Мадирской гончарной школе Хорезмского оазиса и ее уникальных аспектах.

Ключевые слова: Мадирская гончарная школа, Глазурованная керамика, Гончарная школа, Династия Мачонова, Художественная керамика, Композиция узоров.

Abstract:

This article contains information about the Madir Pottery School of the Khorezm Oasis and its unique aspects.

Keyword: Madir Pottery School, Glazed Pottery, Pottery School, Matchonov Dynasty, Artistic Pottery, Composition of Patterns.

O'zbek kulolchilik san'ati qator mahalliy maktablarning yaqqol o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ulardan eng asosiylari Rishton, G'urumsaroy, Xorazm, Samarqand, Buxoro, G'ijduvon, Shaxrisabz, Toshkent kulolchilik maktablaridir.[1]

Xonqa Madir kulolchiligi - bu Xorazm viloyati Xonqa tumanida rivojlangan va an'anaviy usullar bilan amalga oshiriladigan kulolchilik san'ati. Bu hududda ishlab chiqarilgan kulolchilik buyumlari o'zining noyob xususiyatlari va estetik jihatlari bilan mashhurdir.

Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan kulolchilik buyumlari Xorazm kulolchilik san'ati tarixi qadim zamonlarga, eramizdan avvalgi davrga borib taqalishdan dalolat beradi. Xorazmda ham bir necha kulolchilik markazlari bo'lib, shulardan eng ko'zga ko'ringan va samarali faoliyat olib borganlardan biri Xonqa Madir kulolchilik markazidir. Madir Xorazmdagi sirlangan sopol buyumlari tayyorlanadigan va imoratsozlikning ajralmas qismi bo'lgan koshinkorlik san'ati rivojlangan qadimgi markazlardan biri hisoblanadi. XX asr boshlarida Madir qishlog'ida 15 ta kulolchilik ustaxonasi bo'lib, ularda 80 dan ortiq ustalar faoliyat olib borishgan.

XIX asrning oxiri XX asr boshlaridagi badiiy kulolchilik buyumlari orasida asosan unchalik murakkab bo'lgan naqsh bezaklari asosiy o'rinni egallaydi. Naqshlar juda nozik, nafis va qisqa chiziqlardan iborat bo'lgan. Shuningdek, naqshlar kompozitsiyasi o'ta mohirlik bilan topilib ular bir-biriga juda mutanosib joylashtirilgan[2].

O'tmishda usta Bolta Matrizayev, Bolta Vaisov, Matchon Qulimov kabi o'nlab mohir kulollar koshin pishirishda katta tajribaga ega bo'lgan. Ular hashamatli saroylar, madrasalar, maqbaralar, ziyorotgohlarni bezatishgan. Madirlik kulollar Xivadagi Islomxo'ja (1910) minorasini koshin plitalari bilan bezashda ishtirok qilib, o'zlarini yuksak mahorat egasi ekanligini namoyish qilganlar.

Madir kulolchilik markazini eng kuzga kuringan namayondolaridan biri 1909 yilda tugilgan Raimberdi Matchanovdir. Uning yaratgan asarlari yuksak kasbiy mahorat, nozik did bilan ishlanganligi, bezak naqshlarining betakrorligi, ranglar uyg'unligi bilan ajralib turadi. Raimberdi Matchanov yaratgan badiiy sopol buyumlari Fransiya, Italiya, AQSH, Yaponiya, Malayziya, Angliya, Ispaniya, Hindiston, Turkiya kabi jahonning ko'pgina mamlakatlarida ham san'at muxlislarini hayratda qoldirgan va uning ishlari dunyoning nufuzli muzeylaridan joy olgan.

Usta asosan ota bobolaridan o'rgangan qadimiy sir tayyorlash texnologiyasi asosida rang tayyorlab, uni sopolga bergan, sopolga naqsh chizish, rang berish usullarini yaxshi bilgan, shuning uchun ham uning tayyorlagan sopol buyumlaridagi naqshlar kompozitsiyasi matematik aniqlikda bajarilgani, unda aks etgan zangori ranglar jilosi hammani ham hayratda qoldirib kelgan, shuning uchun xam Rayimberdi Matchanov o'z davrida davlatimizning yuksak mukofotlariga sazovor bo'lgan. Respublika xalq amaliy san'ati ravnaqi yo'lidagi xizmatlari uchun 1979-yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi unvoniga 1997-yilda Kamoladdin Behzod nomidagi O'zbekiston Respublikasi davlat mukofotiga sazovor bo'lgan.

Hozirgi davrda Madir kulolchilik markazini yana bir vakili, o'z uslubiga va yo'nalishiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Badiiy Akademiyasi a'zosi Odilbek Matchanovdir. U otasidan barcha kulolchilik sir asrorlarini o'rganib, katta mahoratga ega usta bo'lib yetishdi. Odilbek Matchanov asosan ikki yo'nalishda ijod qilmoqda. Bular zamonaviy milliy me'morchilikda imoratlarni badiiy bezash ishlari bo'lsa, ikkinchisi badiiy kulolchilik buyumlaridir. Uning yaratgan ishlari yuksak kasbiy mahorat, nozik did bilan ishlanganligi, bezak naqshlarining betakrorligi, ranglar uyg'unligi bilan ajralib turadi.[3]

Odilbek Matchanov Akasi Matchanov Matchan bilan birgalikda 1999-2000 yillarda Urganchda barpo qilingan Al-Xorazmiy, Al-Beruniy yodgorlik majmualarini va Ogahiy nomli teatr faesini naqshin koshinkorlik san'ati bilan, 2002- yilda Toshkent shahridagi zamonaviy san'at muzeyi peshtoqini bezashda qatnashdi. 2003-yilda Buxoro viloyatida Bahovuddin Naqshbandiy ziyoratgohini ta'mirlash ishlarida ham o'z mahoratini ko'rsatdi. 2004-yilda «Sulton Uvays» ziyoratgohini kirish darvozasi kompleksini yozuv ornamentlari bilan bezatilgan koshin plitalari bilan bezashda qatnashdi va bu ishlarga rahbarlik qildi.

2004-yilda YUNESKO tomonidan ajratilgan grantga sazovor bo'lib, Madir kulolchilik markazi joylashgan eski binoni qaytadan barcha talablarga javob beradigan tarzda foydalanishga topshirildi. Xorazm Ma'mun Akademiyasining barpo qilinganligining 1000 yillik tadbirlarida qatnashib kulolchilikda yangi yo'nalishga ega, ya'ni katta bodiya satxiga geometrik, islamiy naqshlari bilan birga qushlar, gullar va boshqa tabiat manzaralarini aks ettiradigan kompozitsiyalar tushirib bezak beradigan o'ziga xos maktab sifatida e'tirof etildi. Bu esa o'ziga xos yangi asarlar yaratishga imkon beradi.

Xonqa Madir kulolchiligi Xorazm viloyatining madaniy merosining muhim qismidir. Bu san'atning saqlanishi va rivojlanishi uchun ko'plab harakatlar amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://society.uz/uz/news/detail/news/1078>
2. О.А.Хўжаниёзова. XIX-XX аср Хоразм халқ бадиий кандакорлиги ва кулолчилиги.//номзодлик диссертацияси. Т.1995. 138 б.
3. Бобожонов Д., Абдуллаев М. Хоразм амалий санъат усталари. Хива: “Хоразм Маъмун академияси нашриёти”, 2010. 17 б.

